

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQLARNI UNDIRISH TIZIMIDAGI QARZDORLIKLAR VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mintaqaviy iqtisodiyot kafedrası Iqtisodiyot fanlari doktori
professor*

Ismatillayev Kamronbek G'ulomjon o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Soliqlar va budjet hisobi" fakulteti talabasi

Ismatillayevkamronbek@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kundagi O'zbekiston Respublikasida soliqlarni undirish tizimi va u bilan bog'liq muammolar hamda samaradorlikni oshirish yo'llari chuqur tahlil etilgan. Xususan, mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbuslari, mavjud qonunchilik hujjatlari va xalqaro iqtisodchilar fikrlariga asoslangan holda soliq nazoratining hozirgi holati o'rganilib, ularning tamoyillari, uslublari, shuningdek, ustun va zaif jihatlari yoritilgan. So'ngra yechim sifatida tizimni takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Soliq tizimi, soliq undirish, nazorat, audit, deklaratsiya, samaradorlik, budjet, islohotlar, raqamli tizim, monitoring, qonunchilik, ixtiyoriy to'lov.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan so'ng soliq siyosatini tubdan isloh qilish, uni zamonaviylashtirish va xalqaro tajribalarga asoslangan shaklga keltirish yo'lida bir qancha yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, 2017-yildan buyon Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi moliya va soliq tizimida chuqur islohotlar boshlab yubordi. 2023-yil, 18-avgust kunidagi prezidentning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi¹ nutqida tadbirkorlarga yartilayotgan soliq imtiyozlari va ularni undirish mexanizmi, hamda davlat byudjetiga tushayotgan mablag'lar to'g'risa bir qator fikrlar bildirib o'tdi. Tadbirkor yoshlar uchun mamlakatda turli soliq islohotlar amalga oshirilayotganini ham ta'kidlab o'tdi. Bu kabi islohotlar natijasida soliq to'lovchilarning ishonchi ortishi, byudjetga tushumlar sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgaradi. Soliq tizimining soddalashuvi nafaqat iqtisodiy erkinlikni mustahkamladi, balki tadbirkorlik subyektlarining faolligini rag'batlantirdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Soliqchi – ko'makchi" tamoyili esa tizimni sanksiya beruvchi emas, balki hamkorlik ruhida ishlaydigan mexanizmga aylantirishga xizmat qilmoqda. Shunday sharoitda ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida soliqlarni undirish tizimining holati, samaradorlik darajasi va uni yanada takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot
shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi: <https://president.uz/oz/lists/view/6561>

Tadqiqotning maqsadi – mavjud muammolarni aniqlash, xalqaro tajribani hisobga olgan holda milliy soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Davlat moliyasining nazariy asoslari va soliq tizimi samaradorligi mamlakatning yirik tadqiqotlari, xalqaro va milliy ilmiy manbalar tahlili, ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni chuqur anglashga xizmat qiladi.

Xususan, Nobel mukofoti sovrindori Jozef E. Stiglitz o'zining mashhur “Economics of the Public Sector”² asarida davlat moliyasini funksional mohiyatini asoslab, soliqlarni davlat siyosatining eng muhim moliyaviy vositasi sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, soliqlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, resurslarni qayta taqsimlash va ijtimoiy tenglikni shakllantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Ayniqsa, mamlakatning samarali soliq nazorati jamiyatda adolat va ishonch muhitini yaratishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Amerikalik iqtisodchilar Richard A. Musgrave va Peggy B. Musgrave tomonidan yozilgan “Public Finance in Theory and Practice”³ asarida esa soliq siyosatining nazariy mezonlari, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari, shuningdek, davlat byudjetiga ko'rsatadigan bevosita ta'siri tizimli ravishda bayon etilgan. Ular soliq yuki va nazorat mexanizmlarining muvozanatli bo'lishi zarurligiga alohida urg'u beradilar. Ularning fikriga ko'ra, soliq tekshiruvlari maqsadga yo'naltirilgan, adolatli va iqtisodiy faollikni bo'g'maydigan bo'lishi kerak.

CIAT, GIZ va IDB kabi xalqaro miqyosda soliq, rivojlanish va boshqaruv sohalarida faoliyat yurituvchi tashkilotlar tomonidan nashr etilgan “Manual on Tax Collection and Recovery”⁴ asarida, soliq qarzlarni undirish mexanizmi davlat moliyasining barqarorligi va ijtimoiy ishonchni ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida talqin etiladi. Mazkur qo'llanma xalqaro tajribaga tayangan holda, soliq qarzdorligini aniqlash, to'lovchilar bilan kommunikatsiya o'rnatish, shuningdek, majburiy ijro choralari bosqichma-bosqich qo'llash mexanizmlarini tizimli tarzda bayon etadi. Unda soliq idoralari soliq to'lovchi bilan birinchi navbatda ixtiyoriylik va ogohlantirish orqali muloqot qilishga intilishi kerakligi ta'kidlanadi. Soliq qarzini kechiktirgan to'lovchilar uchun bosqichli to'lov rejasi tuzish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda shaffof nazorat tizimini yaratish tavsiya etiladi. Ayniqsa, elektron monitoring, avtomatik eslatmalar, notarial ijro amaliyoti va ijtimoiy bosim orqali soliq to'lovni rag'batlantirish usullari keng yoritilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchilar tomonidan yozilgan bir qator asarlarga yuzlansak, iqtisodchi A.V.Vahobov hamda A.S.Jo'rayevning “Soliqlar va Soliqqa Tortish”⁵ darsligida respublika soliq tizimining shakllanishi, turli soliq turlari, ularni undirish tartibi, nazorat shakllari va soliq organlari o'rtasidagi axborot almashinuvi keng yoritilgan. Bu darslik amaliyotga ancha yaqinligi va mahalliy soliq tizimining xususiyatlarini chuqur tahlil qilgani bilan ajralib turadi.

² Stiglitz, J. E. Economics of the Public Sector, 4th edition, 2018, P-505-510, ISBN: 978-0-393-28839-1.

³ Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. Public Finance in Theory and Practice. McGraw-Hill, 1989, P-317-322, ISBN 0-07-044128-6

⁴ CIAT, GIZ, IDB. Manual on Tax Collection and Recovery, 2016, pp. 22–41. ISBN: 978-9962-647-92-8

⁵ A.V.Vahobov, A.S.Jo'rayev, Soliqlar va Soliqqa Tortish, 2009. ISBN 978-9943-00-327-9

Shuningdek, darslikda soliqlarning huquqiy asoslari, masofaviy nazoratning afzalliklari, deklaratsiya asosidagi nazorat, hamda soliq to'lovchilarining huquq va majburiyatlari yoritilgan bo'lib, u zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini ham o'z ichiga oladi.

Yana bir iqtisodchi O. Olimjonovning fikriga ko'ra: "Soliqlar — davlat va

jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir"⁶. Soliqlarga berilgan mana shu ta'rif eng maqbul ta'rif bo'lib, soliqlarning mohiyati, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini va rolini, soliqlarning harakat jarayonini nazariy jihatdan chuqurroq yoritib, soliqlar haqida aniqroq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Bugungi kunda soliq kategoriyasini har tomonlama, kengroq va batafsilroq, shuningdek, uning mohiyati va ahamiyatini, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o'rnini, soliqlarning nazariy jihatlarini aniqroq va to'liqroq yoritib oladigan ta'rifni keltirish muammosi fanda mavjuddir.

S.G. Pepelyayev o'z nutqida soliqqa oid mazmunli ta'rif bergan. "Soliq — ommaviy hokimiyat subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir"⁷— deb, ta'kidlagan Bu so'zlardan yana bir bor amin

bo'lish mumkinki soliqlar davlat organlarini ta'minlash va ular oldida turgan vazifalarni bajarilishini moddiy ta'minlashning manbasi sifatida xizmat qilgan. Davlatning rivojlanish jarayonida uning vazifa va funksiyalari yangicha xususiyatlarga ega bo'ldi. Lekin soliqlarning davlatni va uning organlarini moliyalashtirishda manba sifatidagi roli o'zgarmay qoldi.

Ushbu ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki O'zbekiston soliq tizimini isloh qilishda xalqaro tajriba va nazariy asoslarni chuqur o'rganish zarurligini. Ayniqsa, nazorat mexanizmlarining inson omiliga tayanishi, raqamlashtirish orqali ishonchli va samarali tizim yaratish imkoniyatini taqdim etadi.

Metodologiya. Ushbu maqolada tadqiqot sifatida qiyosiy tahlil, statistik tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, guruhlash va grafik tahlil usullaridan foydalanildi. Xalqaro tajribalar bilan O'zbekiston soliq tizimi solishtirilib, soliq undirish samaradorligi baholandi. Tanlangan usullar soliq nazorati jarayonlarini chuqur tahlil qilish va takomillashtirish yo'llarini belgilashga xizmat qildi.

Tahlil va tahlil natijalari. Har bir davlatning iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy mustahkamligi, avvalo, soliq tizimining qanchalik samarali ishlashiga chambarchas bog'liq. Aynan soliqlar davlat byudjetini to'ldiruvchi asosiy manba bo'lib xizmat qiladi va u mamlakat taraqqiyotining tayanchi hisoblanadi. O'zbekiston ham mustaqillikka erishgan ilk yillardanoq soliqqa oid siyosatini isloh qilish, uni zamonaviy talablar va xalqaro mezonlarga moslashtirish yo'lida qator harakatlarni amalga oshirib kelmoqda. Ammo

⁶ Olimjonov O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. "Hayot va iqtisod"1992

⁷ Pepelyayev S. G. Soliq huquqining asoslari. – Moskva: 1995. – 24 bet.

shunga qaramay, bugungi kunda soliq qarzlarni undirish borasida hali hal etilishi lozim bo'lgan masalalar yo'q emas. Bu esa, o'z navbatida, byudjetga kelib tushishi kerak bo'lgan mablag'larning kechikishiga, moliyaviy intizomning sustlashuviga hamda fuqarolar va tadbirkorlarning iqtisodiy yuklamasi ortishiga olib kelmoqda. Aynan shu boisdan, soliq qarzlarni samarali tarzda undirish mexanizmini takomillashtirish masalasi bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Soliq qarzlarning ortib borishiga turli sabablar turtki bo'lmoqda. Eng avvalo, ayrim soliq to'lovchilarning moliyaviy holati yaxshi emasligi bu muammoning asosiy ildizidir. Ba'zida tadbirkorlar xususan, kichik va o'rta biznes vakillari iqtisodiy beqarorlik, talabning pasayishi yoki boshqa moliyaviy to'siqlar sabab soliqlarni belgilangan muddatda to'lashda qiyinchilikka duch kelishadi. Bu holat aynan ularning kundalik faoliyatida eng ko'p sezilayotgan muammolardan biridir.

1-rasm. Qurilish korxonalarining soliq qarzidorligi⁸




Yuqoridagi 1-rasmdagi ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida o'z faoliyatini yuritayotgan 1142 ta korxonaning soliq qarzi 100 million so'mdan oshgan bo'lib, ularning umumiy qarzini olib qaralsa, 920,8 milliard so'mni tashkil etgan. Bu esa qurilish sohasidagi o'ziga xos muammolarning chuqurlashayotganidan hamda davlat byudjetiga tushumlar kechikayotganidan dalolat beradi. Eng katta soliq qarzidorligi Toshkent shahrida kuzatilib, 256 ta korxonaning jami qarzi 344,8 mlrd so'mga yetgan.

Bu holat nafaqat soliq intizomining pastligi, balki soliq nazoratidagi mexanizmlarining yetarlicha samarali emasligidan ham darak beradi. Qolgan hududlar orasida Andijon viloyati 100,8 mlrd so'm, Buxoro viloyati 88,7 mlrd so'm va Jizzax viloyati 44,7 mlrd so'm qarzidorliklar bilan yuqori o'rinlarni egallab turibdi. Alohida e'tiborga tortadigan jihat shundaki, faqatgina top-10ta korxona tomonidan to'plangan soliq qarzi jami qarzlarning 34,2 foizini tashkil qilmoqda. Masalan, "Reliable Stroy Invest" MCHJning o'ziga to'g'ri keladigan soliq qarzi 81,5 mlrd so'm, "Aziya Invest Favorit" esa 60,9 mlrd so'm bo'lib, bu korxonalar faoliyatida soliq majburiyatlariga bo'lgan xurmatsizlik kuzatilmoqda.

⁸Fiskal tahlil telegram kanal ochiq ma'lumoti: <https://t.me/fiskaltahlil/1148>

Shu va shunga o'xshash holatlar, shuni ko'rsatadiki, soliq organlari tomonidan olib borilayotgan nazorat va monitoring ishlari hozirgi holatda sohani to'liq qamrab olishga yoki kerakli natijaga erishishga yetarli emas. Korxonalar tomonidan soliq to'lovlarining o'z vaqtida amalga oshirilmaligi, davlat byudjetining asosiy tushum manbasi bo'lgan soliqlarning kechikishiga olib kelmoqda.



2-rasm. Ishlab chiqarish korxonalarining soliq qarzdorligi⁹

2-rasmdan shuni aniq ko'rish mumkinki, qurilish sohasidan ham yuqori soliq qarzdorligi mavjud bo'lgan ishlab chiqarish sektori ham qarzdorlikdan mustasno emasligi yaqqol ayon bo'ldi.

2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonda soliq qarzi 100 million so'mdan oshgan 1 014 ta ishlab chiqarish korxonasi mavjud bo'lib, ularning jami qarzi qariyb 1 trillion 197,9 milliard so'mga yetgan. Eng yuqori qarzdorlik yana Toshkent viloyatida 214 mlrd so'm qarzdorlik va keyingi o'rinda Andijon viloyatida 152 mlrd so'm qarzdorlik topilgan.

Bu hududlarda yirik sanoat korxonalari to'plangani inobatga olinsa-da, soliq majburiyatlariga rioya qilinmasligi achinarli hol. Bundan ham xavotirli jihat top-10 ishlab chiqaruvchi korxona davlatga jami qarzlarning 22,1 foizini to'lashi kerakligini ko'rsatmoqda.

Masalan, "Petromaruz Uzbekistan" MCHJ 66,6 mlrd so'm, "Eyvalek-Technology" MCHJ 44,1 mlrd so'm, va "Real Agro Cotton" UK 29,7 mlrd so'm soliq qarzi bilan ro'yxatning boshida turibdi.

Bu statistika shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan ishlab chiqarishda ham moliyaviy intizomsizlik ortib bormoqda. Nazorat mexanizmlarining kuchsizligi, soliqni hisoblashdagi xatoliklar yoki qasddan to'lamaslik holatlari davlat byudjetiga jiddiy zarar yetkazmoqda.

⁹Fiskal tahlil telegram kanal ochiq ma'lumoti: <https://t.me/fiskaltahlil/1149>

Hozirgi kunda soliq qarzlarini o'z vaqtida aniqlash va undirishda joydan chiqmasdan, fadadan turib olib boriladigan kameral tekshiruvlar muhim ahamiyatga ega. Bu tekshiruvlar soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining taqdim etgan hisobotlari, hujjatlari va boshqa raqamli ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. Amalda qilingan tekshiruvlar shuni ko'rsatmoqdaki, aynan kameral nazoratlar orqali qarzdorlik holatlari aniqlanmoqda, soliq to'lovchiga ogohlantirishlar berilib, qo'shimcha choralar ko'linmoqda.

- qoʻshilgan qiymat soligʻi – 2 878,8 mlrd soʻm
- foyda soligʻi – 2 165,7 mlrd soʻm
- aksiz soligʻi – 1 063,7 mlrd soʻm
- yer soligʻi – 137,1 mlrd soʻm
- boshqa yigʻimlar va soliqlar – 278,6 mlrd soʻm

- umumovqatlanish, savdo va xizmat ko'rsatish – 2 585,5 mlrd so'm
- ishlab chiqarish – 1 735,8 mlrd so'm
- transport – 1 041,3 mlrd so'm


9

- qurilish – 727,4 mlrd so‘m
- qishloq xo‘jaligi – 268,1 mlrd so‘m
- boshqa sohalar – 165,4 mlrd so‘m

Rasmga ochiq ko‘rinib turibdiki, eng yuqori tafovut aniqlangan hududlar O‘zbekistonning sharqiy qismida joylashgan hududlar bo‘lmoqda. Hududlar kesimida oladigan bo‘lsa, quyidagilardan iborat:

- Toshkent shahri – 1 353,6 mlrd so‘m
- Toshkent viloyati – 1 032,9 mlrd so‘m
- Andijon viloyati – 586,1 mlrd so‘m
- Farg‘ona viloyati – 216,5 mlrd so‘m
- Samarqand viloyati – 178,0 mlrd so‘m

Ushbu raqamlar ishlab chiqarish sohasida soliq qarzдорligi muammosining faqat ochiq qarzlar bilan cheklanmay, yashirin tafovutlar va noto‘g‘ri hisobotlar orqali ham byudjetga sezilarli zarar yetkazilayotganini ko‘rsatadi. Shu bois kameral tekshiruvlar ushbu jarayonni barvaqt aniqlashda beqiyos rol o‘ynamoqda.



Qurilish va ishlab chiqarish sohalarida soliq qarzдорligi hajmi ortib borayotgan, shuningdek kameral tekshiruvlar natijasida milliardlab so‘mlik tafovutlar aniqlanayotgan bir davrda, O‘zbekistonda soliq ma‘muriyatchiligini modernizatsiya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda tub islohotlar olib borilmoqda. Xususan, 2019-yil 10-iyulda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan PQ-4389-sonli¹¹ qaror mamlakatda soliq siyosatini tubdan yangilash, yengillashtirish va zamon talablariga moslashtirishga qaratilgan muhim bosqich bo‘ldi.

Mazkur qaror asosida soliq yuki bosqichma-bosqich kamaytirilib, ayniqsa mehnatga haq to‘lash jamg‘armasiga tushadigan soliq bosimi yengillashtirildi.


¹¹ Lex.uz rasmiy veb-sahifa. <https://lex.uz/docs/-4415356>

Shu bilan birga, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi pasaytirilib, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bekor qilindi.

Bu esa nafaqat biznes yuritish muhitini yaxshiladi, balki tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada erkinlashtirdi.

4-rasm. Soliq yukini kamaytirish va soddalashtirish¹²

Soliq huquqbuzarliklarini hal qilish va QQSni ro'yxatga olish



5-rasm. Tadbirkorlar uchun yengilliklar¹³

Muhim jihatlardan yana biri soliq huquqbuzarliklariga nisbatan qo'llanilayotgan yangi yondashuvdir. Qarorga muvofiq, agar tadbirkorlar soliq buzilishi holatini tan olib, belgilangan jarima yoki qarzдорlikni 10 kun ichida ixtiyoriy to'lasa, ular jinoyaviy yoki ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi. Bu esa soliq organlari va tadbirkorlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning hisobga olinishi, qo'shilgan qiymat solig'i bilan bog'liq tartiblar ham soddalashtirildi. Xususan, QQS to'lovchilari uchun maxsus ro'yxatdan o'tish, soliq hisobotini real vaqt rejimida topshirish imkonini beradigan yagona axborot tizimini joriy qilish belgilandi. Ushbu tizim orqali tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati shaffof tarzda yuritilib, davlat nazorati zamonaviy texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Bularning barchasi soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining faoliyati samaradorligini baholashda KPI tizimi joriy qilinmoqda.

Umuman olganda, ushbu qaror soliq sohasida tub o'zgarishlarni boshlab berdi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari asosida soliq boshqaruvini soddalashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, soliq yuki va hisobotlarini kamaytirish orqali soliq tizimi samaradorligini oshirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Bu esa iqtisodiyotni liberallashtirish

¹² Muallif tomonidan rasmiy ma'lumotga asoslanib yaratildi.

¹³ Muallif tomonidan rasmiy ma'lumotga asoslanib yaratildi.

va tadbirkorlik muhitini yaxshilash yo'lidagi harakatlarning amaliy ifodasidir. Yuqoridagi barcha chora-tadbirlar soliq tizimini nafaqat qarzdorlikni kamaytirish, balki ilgari tahlil qilingan qurilish va ishlab chiqarish sohalaridagi tizimli muammolarga javob topish yo'lida asosiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar

Bugungi O'zbekiston iqtisodiy islohotlar ayniqsa soliq tizimini mexanizatsiyalash jihatdan rivojlanayotgan davlat. Ayniqsa, soliq tizimidagi ochiqlik va samaradorlik mamlakat barqarorligining o'zagini tashkil etmoqda. Ammo, hali ham soliq qarzlari undirishdagi kamchiliklar va ayrim korxonalar tomonidan soliq majburiyatlarining buzilishi byudjetga zarar yetkazmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ayniqsa qurilish va ishlab chiqarish sohalarida yuzaga kelayotgan milliardlab so'mlik qarzdorliklar nafaqat moliyaviy intizomga, balki davlatning iqtisodiy strategiyasiga ham bevosita zarar tug'dirmoqda. Oxirgi yillarda prezidentimiz rahbarligida boshlangan soliq islohotlari ijobiy tomonga o'smoqda. Mamlakatda kameral tekshiruvlarning kuchaytirilishi, raqamlashtirilgan nazorat tizimlarining joriy qilinishi kabi yondashuvlar natija bera boshladi.

Soliq undirish samaradorligini oshirish uchun eng avvalo riskga yo'naltirilgan nazorat tizimini kuchaytirish zarur. Qurilish va ishlab chiqarish sohalarida qarzdorlik yuqori bo'lganidan kelib chiqib, nazoratni ko'proq qarzdorlikka ega subyektlarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, elektron boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, real vaqt rejimida ishlaydigan avtomatik ogohlantirish va monitoring mexanizmlarini joriy etish lozim. Qarzdor korxonalar uchun moliyaviy holatidan kelib chiqib, bosqichma-bosqich to'lov tizimini ishlab chiqishni taklif qilinadi. Soliq organlari faoliyatini ochiq natija ko'rsatkichlari asosida baholash va tadbirkorlar muloqotini mustahkamlash esa tizimga bo'lgan ishonchni yanada oshiradi. Shu bilan birga, intizomli soliq to'lovchilarni rag'batlantirish choralari joriy etish zarur.

Soliq bu jazolash vositasi emas, balki davlat va tadbirkor o'rtasidagi mas'uliyatli sheriklikning ramzidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Stiglitz, J. E. Economics of the Public Sector. 4th edition. New York: W.W. Norton & Company, 2000. ISBN: 978-0393966510.
2. Musgrave, R. A., Musgrave, P. B. Public Finance in Theory and Practice. 5th edition. New York: McGraw-Hill, 1989. ISBN: 978-0070441276.
3. CIAT, GIZ, IDB. Manual on Tax Collection and Recovery. Panama City, 2011. <https://www.ciat.org/manual-on-tax-collection-and-recovery>
4. Vahobov, A. V., Jo'rayev, A. S. Soliqlar va soliqqa tortish. Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
5. Olimjonov, O. Soliqlar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Iqtisodiyot, 2017.
6. Pepelyayev, S. G. Nalogovoye pravo Rossii. Moskva, 2004. ISBN: 978-5891770861.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan uchrashuvdagi nutqi, 2023-yil 18-avgust. <https://president.uz/uz/lists/view/6314>
8. PQ-4389-son qaror, 2019-yil 10-iyul. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: <https://lex.uz/docs/4410071>
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari, 2025-yil 1-aprel holatidagi soliq qarzdorligi bo'yicha hisobot. <https://soliq.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Toshkent: Adolat, 2025. <https://lex.uz/acts/4674893>
11. Fiskal tahlil telegram kanal ochiq ma'lumoti: <https://t.me/fiskaltahlil>